

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

10/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/10 (4) - 2024*

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

Норматов Бекзод Акром ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори, Тошкент давлат юридик университети.

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги

Тошкент давлат педагогика университети,  
Амалий психологияси кафедраси мудир;

Атабаева Наргис Батировна – психология  
фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги  
Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна –  
психология фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари  
университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари  
доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт  
бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология  
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон  
миллий университети кафедра мудир;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари  
доктори, профессор, Ўзбекистон миллий  
университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология  
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон  
халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар  
доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар  
доктори, доцент, Ўзбекистон миллий  
университети кафедра мудир.

---

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари”** электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Norbekov Ahmadjon Norbekovich</i> XX-ASRNING BIRINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTONNING SIYOSIY -IJTIMOIY VA IQTISODIY HOLATI .....	11-18
<i>Eliboyev Ozodjon Po‘lat o‘g‘li</i> BAQTRIYANING KUSHONIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME‘MORCHILIGI.....	19-23
<i>Нуритдинова Нодира Сирожовна</i> XX-АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ (СЕНАТОР К.К. ПАЛЕН ТАФТИШ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА).....	24-28
<i>Чориев Шоҳрух Холтура ўғли</i> ЎРТА ОСИЁ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САРОЙ АРХИТЕКТУРАСИ ИЖТИМОИЙ СТРАТИФИКАЦИЯНИ ЎРГАНИШ МАНБАСИ СИФАТИДА .....	29-38
<i>Жумаева Шоира Бердияровна</i> МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ .....	39-43
<i>Jo‘rayev Muxriddin Xasanovich</i> MOVAROUNNAHRLIK MUHADDISLARNING ILMIY SAFARLARI VA SAFAR YO‘LLARI GEOGRAFIYASI.....	44-51
<i>Муқимова Рисолат Рустамжон қизи</i> ЗИЁРАТ МАРОСИМЛАРИДА ТАБИАТ КУЛЬТИ БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАР .....	52-56

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич</i> ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ТЎЛОВ ҚОБИЛИЯТИ БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ ИЛМИЙ – МЕТОДОЛОГИК ЁНДОШУВИ .....	57-69
<i>Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna</i> MINTAQALARDA FARMATSEVTIKA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI .....	70-75
<i>Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich</i> QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA AGROBIOKIMYO XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI .....	76-86
<i>Ибадуллаев Дилшад Ибрагимович</i> ИНВЕСТИЦИЯ САЛОҲИЯТИНИ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИНИ ЭКОНОМЕТРИК БАҲОЛАШ АСОСЛАРИ .....	87-92
<i>Исламтдинова Дина Файзрахмановна</i> АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	93-102
<i>Qobiljon Isaev</i> O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) A‘ZO BO‘LISHINI IQTISODIY VAHOLASH .....	103-110

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Xaitov Elmurod Bekmurodovich</i> O‘ZBEKISTONDA “AHOLI HAYOT SIFATI”GA ASOSIY YONDOSHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) .....	111-116
<i>Расулов Зоҳиддин Усарович</i> СПОРТ ЭСТЕТИКАСИ: РИТМ, ҲАРАКАТ ВА МАДАНИЯТНИНГ УЙҒУНЛИГИ .....	117-122
<i>Тавмурадов Жамшид Элмурадович</i> АБДУЛҚОДИР БЕДИЛНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ: ФАЛСАФА ВА АДАБИЙ МЕРОС .....	123-128
<i>Davronov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li</i> YUSUF QORABOG‘IY SHAXSIYATI VA FALSAFIY-ILMIY MEROSI .....	129-132
<i>Muxtorova To‘tixon Solijonovna</i> FALSAFA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: METODLAR VA AMALIYOTLAR .....	133-137
<i>Akramov G‘iyosiddin Najmiddinovich</i> MARGINALLASHUV TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI .....	138-142
<i>Ahmedova Dilrabo</i> DINIY BAG‘RIKENGLIKNING YOSHLAR IJTIMOY, MA‘NAVIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDAGI IJTIMOY POTENSIALI .....	143-150
<b>11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Abdunabiyev Sunnat Botirovich</i> IBN BATTUTANING «SAYOHATNOMA» ASARIDA TARIXIY SHAXSLAR NOMINING TARJIMADA BERILISHI .....	151-159
<i>Seytnazarova Injayim</i> ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAHLILI .....	160-168
<i>Tukhtakhodjaeva Zulfiya</i> PHRASEOLOGY AS A SUBSYSTEM OF THE ENGLISH VOCABULARY .....	169-174
<i>Abdusalomov Doniyor Togayali ogli</i> REFLECTION OF THE CONCEPT OF «POLITENESS» IN THE PHRASEOLOGICAL AND PAREMIOLOGICAL RESERVOIRS OF THE COMPARED LANGUAGES .....	175-179
<i>Axmedov Anvar Botirovich</i> TILNING NOMINATSIYA TIZIMIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLAR .....	180-184
<i>Aminov Farrukh Komiljon Ugli</i> THE EVOLUTION OF MEDIA DISCOURSE: FROM TRADITIONAL FORMS TO MULTIMODAL REPRESENTATIONS IN DIGITAL SPACES .....	185-193
<i>Sharipov Bobur Salimovich</i> RETSIPROKLI SEMANTIK DERIVATSIYA .....	194-201
<i>Abduganiyeva Zebuniso Abduhafizovna</i> ILMIY DISKURSNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	202-205

<i>Samatov Farxod Muminovich</i> O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDA “TV” SEMANTIK MAYDONI LEKSIK BIRIKLARINING SO‘Z YASALISH XUSUSIYATLARI (ABBREVIATURALAR MISOLIDA) .....	206-210
<i>Kendjayeva Zemfira</i> METAFORIK POLISEMIYANING LINGVISTIK YUMORI.....	211-216
<i>Abdullayeva Nilufar Ramazonovna, Uzoqova Durdona Baxtiyor qizi</i> INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA «HID», « IS» KONSEPTINING SEMANTIK TAHLILI .....	217-221
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> ALISHER NAVOIYNING “NASOYIM UL-MUHABBAT” TAZKIRASI VA SULAMIYNING “TABAQOT US-SUFIYA” ASARLARI O‘RTASIDAGI MUSHTARAKLIKLAR .....	222-226
<i>Шарапова Лола Станиславовна</i> ИЛЛЮЗИЯ И РЕАЛЬНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА.....	227-232
<i>Ҳакимова Мастура Файзиллаевна</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК МАҚОЛЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ДУНЁ ТАСВИРИНИ АКС ЭТИШДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ЛЕКСИК МАЪНОНИНГ РИВОЖЛАНИШИ (КЕНГАЙИШИ) .....	233-239
<i>Mo‘soyeva Hayitgul O‘roqovna</i> “HEART” – “YURAK” SO‘ZLI METAFORALARNING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI KOGNITIV TAHLILI .....	240-245
<i>Mamataliyeva Navbahor Hujamberdiyevna</i> INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TEZ AYTISHLARNING STRUKTURAVIY TAHLILI .....	246-250
<i>Багаутдинова Ильмира Салаватовна</i> ВЛИЯНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА НА ПРОИЗНОШЕНИЕ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ .....	251-255
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Nuraliyev Oyatillo Abduvaliyevich</i> EFFECTIVE PRACTICES FOR DRAWING YOUNG TALENT TO UZBEKISTAN’S PUBLIC CIVIL SERVICE .....	256-268
<i>Алиев Асилбек Кадиорович</i> ВОПРОСЫ ОТГРАНИЧЕНИЯ МАССОВЫХ БЕСПОРЯДКОВ И ГРУППОВОГО ХУЛИГАНСТВА .....	269-275
<i>Hong Weixing</i> INTERNATIONAL LAW AS THE FOUNDATION FOR THE DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA .....	276-284
<i>Султанова Сабохат Алишеровна</i> ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ОЦЕНКИ РЕГУЛЯТОРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	285-290
<i>Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi</i> O‘ZBEKISTONNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI .....	291-298
<i>Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи</i> ПРЕВЕНТИВНАЯ ФУНКЦИЯ ПОСТПЕНИТЕНЦИАРНОЙ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ .....	299-304
<i>Khalikov Khayot</i> THE ROLE OF MODEL UNITED NATIONS IN SHAPING GLOBAL LEADERS AND LAWYERS: A CASE STUDY ON UZBEKISTAN’S YOUTH .....	305-311



Даулетова Динара Даулетовна

ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ХИЩЕНИЮ ЧУЖОГО ИМУЩЕСТВА .. 312-317

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Толипов Бахтиёр Хамитович

БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ  
САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ВОСИТАЛАРИ ..... 318-324

Собирова Гулибарно Зайнитдин қизи

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ  
РУССКОГО ЯЗЫКА ..... 325-335

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TASHXISLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA  
INNOVATSION-METODOLOGIK YONDASHUVLAR ..... 336-339

Abduxoliqov Sardor Safarovich

YOSH DZYUDUCHILARNI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI  
O'YINLARNING O'RNI ..... 340-344

Usmonova Mohizoda Avazjon qizi

GLOBOL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV  
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI ..... 345-348

Xodjiyeva Zumrad

MEZONLARGA ASOSLANGAN BAHOLANISHNING CHEKLANGAN DOIRASI ..... 349-352

Turdiyev Ismoil Allayorovich

OLIV TA'LIM HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI  
HAQIDA ..... 353-358

Ibadullaev G'ayrat Akmuradovich

BO'LAJAK FIZIKA-ASTRONOMIYA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISH METODLARI ..... 359-364

Ishonkulov Sherali Sharifovich

TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA RAQAMLI  
DASTURLARDAN FOYDALANISH ..... 365-372

Raxmatov Rafik G'ayratovich

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI  
SOG'LOMLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK  
IMKONIYATLARI ..... 373-378

Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING RISKOLOGIK MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI ..... 379-383

Meliboyeva Nodira Qaxramanjanovna

MIRSODIQ TOJIYEV MEROSI (CHANG UCHUN YARATGAN ASARLARI MISOLIDA) ..... 384-387

Qodirov Mirjalol Tolmasovich

TA'LIMDA GIPERMATNLI AXBOROT MODELLARINI QURISHNING ZAMONAVIY  
TEKNOLOGIYALARI VA ASPEKTLARI ..... 388-392

Karimova Aziza

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SCAMPER TEXNIKASI ORQALI BOLALARNING KREATIV  
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA O'RGATISH METODIKASI ..... 393-399

*Nishonov Nodir Alimjanovich*

BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA FUTUROLOGIK TAHLIL QILISH KO`NIKMALARINI  
RIVOJLANTIRISHNING MUHIM ASPEKTLARI ..... 400-404

*Xidirova Durdona Muxtorovna*

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O`QUVCHI QIZLARNI IJTIMOIMADANIY  
MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEKANIZMLARI ..... 405-408

**Received:** 10 December 2024  
**Accepted:** 15 December 2024  
**Published:** 25 December 2024

*Article / Original Paper*

## RECIPROCAL SEMANTIC DERIVATION

**Sharipov Bobur Salimovich**

Teacher, Department of Languages, Samarkand Zarmed University

E-mail: [sharipovbobur9689@gmail.com](mailto:sharipovbobur9689@gmail.com)

**Abstract.** The article discusses the reciprocal nature of derivation. This situation is related to semantics and is studied in the field of semantic derivation of derivatology. It is known that the operator plays an important role in derivation. In this situation, grammatical means that form reciprocity act as operators, and the types of meaning of reciprocity become clear in a communicative situation.

**Key words:** reciprocal, semantics, derivation, operator, reciprocal scheme, mutual relationship, event.

## RETSIPROKLI SEMANTIK DERIVATSIYA

**Sharipov Bobur Salimovich**

Samarqand Zarmed universiteti Tillar kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada derivatsiyaning retsiprokli xususiyati haqida so'z boradi. Ushbu holat semantika bilan bog'liq bo'lib, derivatologiyaning semantik derivatsiya sohasida tadqiq etiladi. Ma'lumki, derivatsiyada operator muhim vazifani bajaradi. Mazkur vaziyatda retsiproklikni shakllantiruvchi grammatik vositalar operator maqomida faoliyat yuritadi, retsiproklikning ma'no turlari esa kommunikativ vaziyatda ravshanlashadi.

**Kalit so'zlar:** retsiprok, semantika, derivatsiya, operator, retsiprokema, o'zaro munosabat, hodisaviylik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI10Y2024N23>

Retsiproklik semantikasini izohlashdan avval o'zaro munosabat ma'nosining qaysi davrlardan boshlab o'rganilganligi xususida to'xtalishni lozim topdik. O'zaro munosabat tushunchasi dastlab falsafada umuminsoniy kategoriya sifatida (voqelik va uni anglash, umuminsoniy xususiyatlar va munosabatlarni aks ettiruvchi asosiy tushuncha sifatida) talqin etildi [1.509]. O'zaro munosabat ma'nosi orqali dialektik materializmning materiya va harakat, makon va zamon, miqdor va sifat, zarurat va tasodif; obyektiv idealizmning mavjudlik va mavjud emaslik, olamiy aql; ekzistensializmning ekzistensiya, erkinlik kabi asosiy kategoriyalari o'z ifodasini topadi. Zero, ilmiy bilishning asosiy bosqichida o'zaro munosabat kategoriyasi obyektiv borliqning eng muhim belgilarini ochib beradi. Qadimgi yunon olimlari o'zaro munosabat g'oyasi orqali dunyo hodisalarining o'zaro bog'liqligini asoslab berishdi. Jumladan, Demokrit tabiatdagi xilma-xil hodisalarning kelib chiqishini cheksiz atomlarning o'zaro ta'siri tufayli deb biladi [2.7].

Platon o'zaro munosabat jarayonini tahlil etib, mazkur tushunchaning jonli va jonsiz obyektlar o'rtasidagi harakatlar mutanosibligidan iborat ekanligini dalilladi [3.316].

Aristotel Platon g'oyalarini takomillashtirib, o'zaro munosabat tufayli moddalarning nomexanik aloqasi asosida *miksisning* (murakkab jismning) yuzaga kelishi konsepsiyasini yaratdi. Olim falsafaning yaxlitlik muammosini yoritib, uning o'zaro munosabatdan paydo bo'lishini, uning hosilasi esa substansiya maqomida kelishini va shu orqali yangi sifat kasb eta boshlashini ta'kidlab o'tdi. Misol tariqasida so'zning yaralishi nutq tovushlarining o'zaro aloqasiga tayanishini va mavjud yaralish ma'no bilan bog'lanishini keltirdi [4.221-222]. Ana shu tarzda antik davrda o'zaro munosabatni materiya harakatining asosiy omili sifatida talqin etdilar.

Sharqda o'zaro munosabat xususida bildirilgan falsafiy qarashlarni Ibn Sino ta'limotida kuzatamiz. Uning fikricha, falsafaning vazifasi mavjudotni, ya'ni barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, bir-biriga o'tishini zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat omillari asosida har tomonlama o'rganishdan iborat. Barcha narsalar imkoniyat tarzida mavjud bo'lib, Tangridan kelib chiqadi. Zaruriy vujud bilan imkoniy vujud munosabati sabab va oqibat munosabatidir [5.242].

Narsa va hodislarning o'zaro aloqasi haqidagi ta'limotning rivojiga taniqli nemis faylasufi I.Kant salmoqli hissa qo'shdi. Olim o'zining «Sof aqlning tanqidi» nomli asarida har qanday narsa-hodisa insonga ta'sir etayotganida nafaqat uning sezgilarining rivojlanishiga, balki bilim darajasini oshirishga ham xizmat qilishini ta'kidlaydi [6.165]. I.Kant o'zaro munosabat qonunini asoslab: «Barcha substansiyalar mavjud bo'lgan borliqda bir vaqtning o'zida idrok etilishi mumkin bo'lgan darajada to'liq o'zaro munosabatdadir», - deb yozgan edi [7/Elektron manba].

Tilshunoslikda o'zaro munosabat tushunchasi haqidagi dastlabki qarashlar I.Kantning g'oyalaridan ruhlangan V.fon Gumboldt ta'limotida sezila boshladi. V.fon Gumboldt nutqni so'z va tushunchaning o'zaro munosabatga kirishuvi obyekt sifatida e'tirof etdi [8/Elektron manba]. Davrlar o'tishi bilan o'zaro munosabat tushunchasi «*retsiprok*» termini ostida tilshunoslikda ham tadqiq etila boshlandi.

Tadqiqotimizning mazkur faslida o'zaro munosabat semantikasini o'rganib, uning o'ziga xos modelini yaratishni, retsiproklik hodisasining kommunikativ plandagi ma'no turlarini izohlashni maqsad qilib qo'ydik. Shunga ko'ra retsiproklik propozitsiyasiga aniqlik kiritib o'tishni lozim topdik:

1. *Kelinoyimning bunchalik ravon, bunchalik dona-dona o'qishini endi bilishim* (O'.Hoshimov. Umr savdosi).

2. *Komil amaki deraza oldida o'tirgan ekan. Shoshilmay o'rnidan turdi* (O'.Hoshimov. Nurli dunyo).

3. *Amirlar musiqa ovozi eshitilayotgan mehmonxonaga kirib bordilar* (M.Ali. Ulug' saltanat. Birinchi kitob).

4. *Ular xon saroyiga yaqinlashganlarida darvoza oldida bir ko'p xaloyiq yig'ilib turganini payqadilar* (M.Ali. Ulug' saltanat. Birinchi kitob).

Keltirilgan birinchi va ikkinchi misollarda harakat birgina shaxs tomonidan bajarilayotgan bo'lib, bu ulardagi propozitiv struktura predikatlari orqali anglashiladi [9.59-68]. Berilgan gaplardagi predikat vazifasini *bilishim, o'tirgan ekan, turdi* kabi so'zlar bajarmoqda va ularning bo'sh o'rinlari aktantlar evaziga to'ldirilmoqda. Zero, propozitiv struktura predikati har doim bo'sh o'rinlariga ega bo'lib, abstraktlik kasb etadi. Agar uning bo'sh o'rinlari to'ldirilsa, propozitiv struktura sintaktik derivatsiya uchun xizmat qila boshlaydi.

Ushbu gaplarning semantik sinchini (*Men*) *bilmoq*, (*Komil amaki*) *o'tirmoq*, *turmoq* tarzidagi virtual semantik tarkib tashkil etayotganini kuzatamiz.

Yuqoridagi uchinchi va to'rtinchi misollardagi propozitiv struktura predikatlari retsiproklikni ifodalab, vaziyat ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabat tushunchasini anglatib kelmoqda. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

1) birinchi va ikkinchi gaplar semantikasining differensial belgisi ularning propozitiv strukturasi predikatlari orqali bir tomonlama harakatning yuzaga chiqayotganligida ko'rinadi:  $Pd/l=A \rightarrow V$ ;

2) ikkinchi va uchinchi gaplar semantikasining differensial belgisi ularning propozitiv strukturasi predikatlari orqali situatsiya referentlarining o'zaro munosabatda bir xil harakatni bajarayotganligida bilinadi:  $Pd/l=a \in A \rightarrow V(Rq)$ .

O'zaro munosabatni ifodalayotgan simvollarni quyidagicha izohlaymiz: *P* gap, *d/l* differensial belgi, *A* harakat ijrochisi,  $a \in A$  ijrochilarning ko'pligi, *V* predikat yoki harakat ijrosi, *Rq* retsiprokli qurilma.

Retsiproklikning mazkur ko'rinishida bir nechta harakat ijrochisi mavjud bo'lib, ular son jihatidan aniq emas. Bu holatni grafik ko'rinishda ko'p burchaklarga ega bo'lgan figuraga qiyoslasa bo'ladi. Uning har bir burchagidan vektorlar boshqa burchaklarga qarab o'tadi va vektorlar bir xil semantik distributiv munosabatni belgilaydi. Ammo retsiprokli qurilma semantikasi har doim noaniq ishtirokchilar soni bilan belgilanmaydi. Retsiproklikda referentlar soni aniq bo'lishi ham mumkin:

1. ...*Bayramxon, Turdibek, Aliqulixon o'zbek, Qilichxon Andijoniy kabi ahli davlat...podsho filining orqarog'ida bormoqda* (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

2. *Poshshaxon bilan Xadichaxon voqeani surishtirib ko'rdilar* (Cho'lpon. Yana oldim sozimni).

Berilgan misollarda retsiprokli qurilma referentlari miqdorining aniq ekanligi izoh talab etmaydi. Bunday gaplar umumiy planda retsiprokli qurilma bo'lgani bilan, ular yuqoridagi retsiproklardan farqli o'laroq retsiprokning ichki semantikasini izohlashi va derivatsion voqelanishi jihatidan farqlanadi. Qiyoslang:

*Amirlar musiqa ovozi eshitilayotgan mehmonxonaga kirib bordilar.*

1) *kirib bordilar* – V; 2) *Amirlar kirib bordilar* – N+V; 3) *mehmonxonaga kirib bordilar* – N+X<sub>1</sub>+V: op (operator). -ga; 4) *Amirlar musiqa ovozi eshitilayotgan mehmonxonaga kirib bordilar* – N+X<sub>2</sub>+V: op. -ayotgan; R/op (retsiprok operator). -lar; referentlar soni aniq bo'lmagan retsiprokli qurilma:  $Pd/l=a \in A \rightarrow V(Rq)$ .

*Poshshaxon bilan Xadichaxon voqeani surishtirib ko'rdilar.*

1) *surishtirib ko'rdilar* – V; 2) *Podshshaxon bilan Xadichaxon surishtirib ko'rdilar* – N+V; 3) *Poshshaxon bilan Xadichaxon voqeani surishtirib ko'rdilar* – N+X<sub>1</sub>+V: op. -ni; R/op. bilan; referentlar soni ikkiga teng bo'lgan retsiprokli qurilma:  $Pd/l=A_1+A_2 \rightarrow V(Rq)$ .

Shuni aytish kerakki, sintaktik qurilmaning semantik jihatdan retsiproklikni ifodalashida uning fe'l guruhi ishtirokchilari har doim ham ko'plik shaklni talab qilavermaydi. Zotan, retsiproklik semantikasi qurilmaning ot guruhi tasarrufidagi agens vazifasida keluvchi ishtirokchilari orqali aks etishi mumkin. *Agens* lotincna tildan olingan bo'lib, «faol» degan ma'noni anglatadi. U semantik kategoriya sifatida tildagi asosiy semantik rollardan birini bajaradi. Nutqda agens vaziyatning faol ishtirokchisi bo'lib, harakatni bajaradi yoki vaziyatni


nazorat qiladi. Masalan, fikrimizni yuqorida berilgan misolni BI (*bevosita ishtirokchilar*) metodiga tayangan holda tahlilga tortish bilan dalillashimiz mumkin.

Ushbu tahlil metodining afzalligi shunda ko'rinadiki, u orqali gap unsurlarining nafaqat sintaktik faollashuvini, balki semantik qurshovini ham aniqlash mumkin bo'ladi. Zero, har bir guruh tarkibidagi BI unsurlarining o'zaro munosabati bunga katta imkoniyat yaratadi [10.51].

...*Bayramxon, ///// Turdibek, ///// Aliqulixon o'zbek, ///// Qilichxon Andijoniy /// kabi // ahli davlat /...podsho // filining /// orqarog'ida //// bormoqda.*

Berilgan retsiprokli qurilmani BI tahliliga ko'ra gorizontaal hamda vertikal yo'nalishda analiz qilamiz. Qarang: 2-sxema.

$$P = GN + GV; GN = N_1 + N_2 + N_3 + N_4 + d + N_5; GV = N_1 + N_2 + N_3 + V.$$



(2-

sxema)

Tahlil uslubidagi simvollar quyidagilarni anglatadi: P – gap, GN – ot guruhi, GV – fe'l guruhi, N – ot so'z turkumi yoki uning o'rnidagi unsur, V – fe'l va uning vazifasidagi so'z, d – yordamchi so'z yoki har qanday aniqlovchi, raqamlar bevosita ishtirokchi elementlarning sonini ko'rsatadi.

Ba'zan retsiproklik fe'l guruhi orqali ifodalangani bilan ham tub struktura ko'plik shaklida voqelangan bo'lmaydi. Ushbu vaziyatda *biz* kishilik olmoshi yoki *bilan* ko'makchisi, *birga* ravishi kabilar retsiprok semantikasini ifodalashda muhim vazifa bajaradi. Boshqacha aytganda, ular retsiprok operatori maqomida keladi. Masalan:

...,u *biz bilan birga o'qimagan*,... (O'.Usmonov. Girdob).

$$P = GN + GV; GN = N_1; GV = N_1 + d + d + V.$$

Ko'rinib turibdiki, BI tahliliga ko'ra retsiprokli qurilmaning fe'l guruhiga mansub bo'lgan *biz bilan birga o'qimagan* degan qismi retsiproklik semantikasini yuzaga chiqarmoqda hamda mazkur vaziyatda yuqorida tilga olingan elementlar yetakchi funktsiya bajarmoqda. Garchi *bilan* ko'makchisi BI tahlili shajarasida determinant bo'lib kelayotgan bo'lsa-da, retsiproklik ifodalashda uning nufuzi baland turadi. Qiyoslang: *biz bilan birga o'qimagan* – *biz...birga o'qimagan*. Demak, aynan *bilan* ko'makchisi ish-harakatning birgalikda bajarilayotganiga ishora qilmoqda. To'g'ri, mazkur vaziyatda ma'lum harakatning bajarilishi inkor etilmoqda, ammo bu bilan uni retsiprok ifodalamayapti deb ayta olmaymiz. Zero, mavjud holatdagi qurilmalarni harakat bajarilishini inkor etuvchi retsiproklar deb bilamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, retsiproklik formulasining universalligiga qaramay, o'zaro munosabat ma'nosining ifodasi juda xilma-xildir. Shu asosda biz retsiproklik ma'nosining turlarini tasnif qilishni lozim topdik. Retsiproklikning ushbu ma'no turlari, albatta, kommunikativ vaziyatda ravshanlashadi:

### 1) subyektlarning teng ishtirok etishini anglatuvchi retsiproklik;

1. *Bufetchi va ofitsiantlar ularga qarab-qarab qo'yishdi-yu, lekin indashmadi* (Zohir A'lam. Zarb).

$$Pd/l=a \in A_1 + a \in A_2 \rightarrow a \in A \rightarrow V (Rq).$$

2. *Chol-u kampir bo'lgan voqealarni uzoq eslashib, nihoyat, bular hammasi qip-qizil po'choqli oltin tuxumning karomati, degan xulosaga kelishdi* (Qudrat Do'stmuhammad. Oltin tuxum).

$$Pd/l=A_1 + A_2 \rightarrow V (Rq).$$

Keltirilgan birinchi misolda subyektlarni retsiprok situatsiyasida faollashtirib, ularning teng huquqligini ta'minlovchi *-lar, -sh, -ish* qo'shimchalarini retsiprok operatorlari deb ataymiz. Agar mazkur jumlada retsiprok operatorlari bo'lmasa, u sof komitativga aylanib qoladi. Bundan tashqari, komitativda simmetriya mavjud emas. Negaki, ikki individ ish-harakatni (qarab qo'yishni) bir vaqtning o'zida amalga oshirmagan bo'lishi mumkin. *Ularga* so'zi *unga* so'ziga o'zgargan taqdirda ham, retsiproklik strukturasi putur yetadi, chunki mantiqan *ular* qandaydir harakatni birgalikda bajarishgan, shu sababli *bufetchi* va *ofitsiant* ularga qaragan. Qiyoslang:

*Bufetchi va ofitsiantlar ularga qarab-qarab qo'yishdi-yu, lekin indashmadi – Bufetchi va ofitsiant unga qarab-qarab qo'ydi-yu, lekin indamadi.*

Shu bois bu o'rinda retsiproklikning komitativ ma'no bilan uyg'unlashib kelayotganini kuzatamiz. Zero, *bufetchi* bilan *ofitsiantlarning* harakatni birgalikda bajarishliklari aniq.

Ikkinchi misolda ham komitativ-retsiprok ifodasi mavjud. Chunki *-u* yuklamasining o'rnida bemalol *bilan* ko'makchisini qo'llasa bo'ladi. Mazkur qurilmada retsiprok operatorlari vazifasini *-u* yuklamasi, *-sh, -ish*, qo'shimchalari bajarmoqda. Bir qaraganda *hamma* belgilash olmoshi va *-lar* ko'plik qo'shimchasi ham retsiprok operatoriga o'xshab ko'rinsa-da, aslida vaziyat unday emas, chunki bu vositalar individlarning o'zaro munosabat doirasida ish-harakatni birgalikda bajarishini ifoda etishda vazifa bajarmayapti. Qiyoslang: *bular hammasi oltin tuxumning karomati – bular o'qidi, hammasi ishladi* kabi.

Semantik rejada keltirilgan birinchi misoldagi retsiprok situatsiyani namuna sifatida quyidagi rollarga bo'lib o'rganamiz:

*bufetchi va ofitsiantlar* (Ag), *ular* (Pt), *ular* (Adrn – harakat impulsini yuboruvchilar), *bufetchi va ofitsiantlar* (Adr – harakat impulsini qabul qiluvchilar), mavjud jarayonda ular qandaydir mazmundagi harakat ijro etishgan (Cont), retsiprok vaziyatida dastlabki ishtirokchilar (*bufetchi va ofitsiantlar*) boshlang'ich nuqtada voqe topgan (Ab), keyingi ishtirokchilar (Ad) (*ular*) jarayonga kechroq qo'shilgan, subyektlar simmetriyasi mavjud (Med), rag'batlantiruvchi omil va kauzatsiya kuzatilmaydi. Umuman, barcha retsiproklarni ham shu tarzda semantik rollarga bo'lish mumkin.

## 2) subyektlarning teng ishtirok etmasligini anglatuvchi retsiproklik;

1. *O'rtoqlarim zo'rlab sudrashsa ham qadam bosmadim* (Qamchibek Kenja. Baliq ovi).

$$Pd/l=a \in A \rightarrow A_1 \rightarrow V (Rq).$$

2. *Oradan ko'p o'tmay otam bizni shaharga ko'chirib ketdi* (Qamchibek Kenja. Baliq ovi).

$$Pd/l=A_1 \rightarrow a \in A \rightarrow V (Rq).$$

Misollardan ko'rinib turibdiki, retsiproklikning mazkur turida o'zaro harakatda referentlarning biri ajralib qolmoqda. Boshqacha aytganda, u jarayonda subyekt sifatida mavjud, ammo semantik jihatdan retsiprok distributsiyasiga aloqador emas. Masalan: *O'rtoqlarim sudrashdi* – birgalikdagi harakat. *Men bormadim* – bo'lishsiz (yakka) harakat. *Otam*

*ko'chirdi* – yakka harakat. *Biz ko'chdik* – birgalikdagi harakat. Garchi shunday bo'lsa-da, qurilma umumiy planda retsiprok deb yuritiladi. Chunki bir necha shaxsning harakatiga aloqador bo'lgan yakka harakat ham, bir necha shaxsning harakatiga ko'rsatilgan qarshi harakat ham mantiqan birgalikdagi harakat hisoblanadi.

### 3) ishtirokchi subyektlari ko'p va noaniq bo'lgan retsiproklik;

1. *Zindonga kirganlarning osonlikcha chiqishlari mumkinmi?* (Abdulhamid Cho'lpon. Novvoy qiz).

$$Pd/l=a \in A_{\{...\}} \rightarrow V (Rq).$$

2. *Eroniyalar el-yurtini talab, erkaklarni qul, xotinlarni asir qilib olib ketayotirlar* (Mirkarim Osim. Shiroq).

$$Pd/l=a \in A_{\{...\}} \rightarrow a \in A_{\{...\}} \rightarrow V (Rq).$$

Ikkala misolda ham retsiprok derivatsiyasi ko'p va noaniq subyektlar tomonidan birgalikda bajarilgan ish-harakat derivatini voqelantirmoqda. Zero, *kirganlar*, *eroniyalar* retsiprokemalari mantiqan shu mazmuni yuzaga chiqarmoqda.

4) **kichik kvantlardan iborat bo'lgan retsiprok harakat ifodasi**; *Bedananing piri shu!* - deb menga **shivirlab qo'yishardi** xalfa shogirdlar (Oybek. Bolalik xotiralarim).

**Shivirlab qo'yishardi** tarzidagi analitik retsiprokema orqali birgalikda bajarilgan harakat asnosida *multiplikativ* ma'no ifodasi yuzaga chiqayotgani kuzatilmogda. *Multiplikativ* ma'no yoki *multiplikativ* deganda individual holda takrorlanuvchi lahzali kvantlardan iborat harakatni tushunamiz. Multiplikativ ma'noni ifodalovchi fe'llar ko'p fazali fe'llar hisoblanadi [11]. Kvant tushunchasi lotincha «*quantum*» so'zidan olingan bo'lib, miqdorni ifodalashda qo'llanadi. Boshqacha aytganda, kvant orqali harakat miqdori belgilanadi. Ko'rib turganimizdek, mazkur retsiprokli qurilmada kvant darajasi **shivirlab qo'yishardi** tarzidagi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi bilan ifoda etib, harakatning ko'p fazaligini anglatmoqda. Ko'p fazalilik esa uzluksiz harakatni yemiradi. Aniqrog'i, u harakatning qandaydir lahzalarda tez-tez sodir bo'lib turishini ko'rsatadi. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, harakatning ko'p fazaligida analitik retsiprokema tasarrufidagi retsiprok operatori *-ish* qo'shimchasining sira ahamiyati yo'q. Zero, mazkur qo'shimcha faqat o'zaro munosabat semasini ifodalashdagina ahamiyatli hisoblanadi. Ko'p fazalilik analitik retsiprokemaning ko'makchi qismidagi *-ar* qo'shimchasiga bo'g'liq bo'lib qolmoqda. Qiyoslang: **shivirlab qo'y+ish+di** – **shivirlab qo'y+ish+ar+di**.

Bu haqda M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulovlarning «O'zbek tili» darsligidagi fikrni keltirishni o'rinli deb bilamiz: «Doimiy harakat yoki holat bildiruvchi o'tgan zamon davom fe'li ma'lum bir vaqt tushunchasi bilan chegaralanmagan davomiylikni ifodalaydi. Fe'lning bu formasi **-r (-ar)** affiksi bilan yasalgan kelasi zamon sifatdoshiga **edi** to'liqsiz fe'lini tuslab biriktirish bilan yasaladi» [12.134].

Lekin shuni aytish kerakki, kichik kvantlardan iborat bo'lgan retsiprok harakat ifodasi uzluksiz harakatni bildirmaydi, aksincha u qisqa-qisqa vaqtlar mobaynida bajarilayotgan harakatni ifodalaydi va qandaydir ma'noda chegaralangan hisoblanadi. Bunda, misolda ko'rinib turganidek, **-r (-ar)** affikslarining ahamiyati katta bo'ladi.

### 5) bir retsiprok harakat orqali ikkinchisining inkor etilishi;

Ikkala soqchisi ham uning yonida edilar. Po'lat Damirovich to'xtasa, **to'xtashardi**, yursa, **yurishardi** (Zulfiya Qurolboy qizi. Mashaqqatlar girdobi).



Retsiproklikning mazkur turi *duplikativ* situatsiyani taqozo etadi. Duplikativ vaziyatda bir-biriga qarama-qarshi takrorlanuvchi harakatlar o'z ifodasini topadi. Masalan, keyin sodir bo'lgan har bir harakat oldingisiga nisbatan qarshi harakat vazifasini bajarib, uning natijasini inkor etadi [13.31]. Darhaqiqat, **to'xtash** harakati o'zidan keyin kelayotgan **yurish** harakati orqali inkor etilmoqda. Bunda retsiproklik ma'nosi *-sh* hamda *-ish* operatorlari yordamida voqelanmoqda.

**6) turli yo'nalishlarda amalga oshuvchi harakatni ifodalovchi retsiproklik;**

*Sekin yurishmaydi, u yoqdan-bu yoqqa yugurganlari yugurgan* (M.Yoqubova. Xotiralar).

Retsiproklik semantikasida mazkur holat *alternativ* hosilani voqelantiradi. Bir necha shaxs tomonidan bajarilayotgan harakatda galma-gallik mavjud bo'lganligi bois ham u alternativ (*alternativ* – lotincha *alternus* «navbat bilan») deb yuritiladi.

**7) bajarilayotgan harakatda uzilish sodir bo'lishini ifodalovchi retsiproklik;**

*To'xtashdi. ... Yana yuz ellik qadamcha yurishdi* (Evril Turon. Bo'z bo'ri).

Mazkur vaziyat retsiprokal derivatsiyada *diskontinuativ* (*diskontinuativ* – inglizcha *discontinuative* «uzilgan») hosilani taqozo etadi. Ushbu vaziyatda pauzalar bilan amalga oshiriladigan retsiprokal harakat kuzatiladi [14.420-452].

**8) qayta-qayta sodir bo'ladigan harakatni ifodalovchi retsiproklik;**

*Toshkent shahrida muammolar borligi rost, ancha daraxtlar kesildi, ommaviy axborot vositalarida bu haqda ko'p yozishdi* (Elektron manba// aktual.uz(@aktualuzbekistan)).

Retsiproklikning mazkur hosilasi *interativlik* (*interativ* – lotincha *iterare* «qayta bajarish, takrorlash») kasb etib, u orqali harakatning ko'p marotaba sodir bo'lganligi anglashiladi.

**9) doimiy sodir bo'lib turadigan harakatni ifodalovchi retsiproklik;**

*...Qizlar qiziq, doim nimalarnidir pichirlab yurishadi* (Nabijon Boqiy. Yoshlik hikoyalari).

Keltirilgan misolda analitik retsiprokema orqali subyekt xarakteriga bog'liq bo'lgan muntazam takrorlanib turuvchi retsiprokal harakat o'z ifodasini topmoqda. Shu bois retsiprokal ma'no *xarakterologik xabituallis* hosilasini yuzaga chiqarmoqda.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Большой энциклопедический словарь. -М.: Большая Российская энциклопедия, 1998.
2. Коротаева Е.В. Основы педагогики взаимодействий: теория и практика. - Екатеринбург: Изд. УрГПУ, 2013.
3. Платон. Собр.соч. в 4 т. Т. 2. -М.: Мысль, 1993.
4. Аристотель. Соч. в 4 т. Т. 1. -М.: Мысль, 1975.
5. Яминов А. Ибн Сино фалсафаси ва ислом илмлари (тафсир ва калом)//Sharqshunoslik, №2-3, 2015.
6. Кант И. Собр. соч. в 2 т. -М.: Мысль, 1993. Т. 1.
7. [https://graymagic.ru/biblioteka/46338\\_kritika\\_chistogo\\_razuma/p\\_205/](https://graymagic.ru/biblioteka/46338_kritika_chistogo_razuma/p_205/) (Shifaga 18.01.2023 da murojaat etildi).
8. Фефилов А.И. Феномен языка в философии и лингвистике/Вильгельм фон Гумбольдт. Философия языка и основы антропоцентрической лингвистики. <https://fil.wikireading.ru/82117> (Sahifaga 22.01.2023 da murojaat etildi).
9. Манаенко Г.Н. Предикация, предикативность и пропозиция в аспекте информационного осложнения предложения//Филологические науки, №2, 2004.

10. Турниёзов Н., Турниёзова К. Функционал синтаксисга кириш. -Тошкент: Фан, 2003.
11. Телякова В.М. Мультипликативные и дистрибутивные значения и средства их выражения в шорском языке (в сопоставлении с русским)//Сибирский филологический журнал, 2013, №1.
12. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
13. Храковский В.С. Семантические типы множества ситуаций и их естественная классификация//Типология итеративных конструкций. -Л.: Наука, 1989.
14. Дьячков В.В., Стрыгина М.О. Семантические и синтакстические свойства показателей глагольной множественности в горномарийском языке//Acta Linguistica Petropolitana. 2020.Vol.16.2.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/10 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).